



## O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi (2019/2020 o'quv yili boshida)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, bu sohada innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali o'rta maxsus ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 14- martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829-sonli qarori qabul qilindi.

O'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarining  
2019/2020 o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda






● Kasb-hunar kollejlari ● Akademik litseylar

O'zbekiston Respublikasida 2019/2020 o'quv yilida jami 1117 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritgan. Ulardan, akademik litseylar soni 92 ta (8,2%) ni va kasb-hunari kollejlari soni 1025 ta (91,8%) ni tashkil etgan.


### Kasb-hunar kollejlarning 2019/2020 o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2019/2020 o'quv yili boshida 1025 ta kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida (124 ta), Samarqand viloyatida (106 ta) va eng kam ko'rsatkich esa Navoiy viloyatiga (27 ta) to'g'ri keladi.

## Kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi

(2019/2020 o'quv yili boshiga)




2019/2020 o'quv yili boshida kasb-hunar kollejlarda 239,2 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Samarqand viloyatida - 29,1 ming kishi, Farg'ona viloyatida - 25,6 ming kishi, Qashqadaryo viloyatida - 23,9 ming kishi va Toshkent shahrida 23,7 ming kishiga to'g'ri kelgan.



**Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining hududlar kesimidagi taqsimlanishi,  
ming kishi**

*(2019/2020 o'quv yili boshiga)*



2019- yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 468,8 ming nafar o'quvchi kasb-hunar kollejarini tamomlagan. Shundan, eng ko'p tamomlagan oquvchi soni Farg'ona (54,6 ming nafarni) va Samarqand (54,1 ming nafarni) viloyati ko'rsatkichiga tegishli, eng kam bitiruvchi esa Navoiy (13,2 ming nafar) va Sirdaryo (10,8 ming nafarni) viloyatiga to'g'ri kelgan.

**Kasb-hunar kollejlari o'qituvchi xodimlarining  
hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi**  
(2019/2020 o'quv yili boshiga)




	Jami o'qituvchilar, (o'rindoshlarsiz) ming kishi	Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>17,5</b>	<b>14</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,1	14
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1,4	14
Buxoro	1,1	14
Jizzax	1,1	11
Qashqadaryo	0,8	31
Navoiy	0,5	12
Namangan	2,2	7
Samarqand	2,0	15
Surxondaryo	1,3	10
Sirdaryo	0,6	12
Toshkent	1,1	18
Farg'ona	1,7	15
Xorazm	0,6	22
Toshkent sh.	2,0	12

2019/2020 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari jami o'qituvchilar soni 17,5 ming nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 14 nafar o'quvchi to'g'ri kelib, shulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatiga ya'ni, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 31 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Namangan viloyatida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 7 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.




**Akademik litseylarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda**  
(2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019/2020 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha akademik litseylar soni 92 tani tashkil etgan bo'lib, hududlar bo'yicha taqsimlanganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri kelgan, ya'ni 31 ta akademik litseylar, bu esa O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami akademik litseylarning 33,7% ini tashkil etadi. Eng kam ko'rsatkich Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelgan, ya'ni 2 ta akademik litsey.

**Akademik litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimidagi taqsimlanishi, ming kishi**  
(2019/2020 o'quv yili boshiga)




O'zbekiston Respublikasida 2019/2020 o'quv yili boshida akademik litseylarda jami 43,2 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, o'quvchilar hududlar kesimida taqsimlanganida boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Toshkent shahrida – (12,8 ming kishini tashkil etgan) qayd etilgan.



## Akademik litseylarni bitirgan o‘quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi

(2019/2020 o‘quv yili boshiga)



2019- yilda O‘zbekiston Respublikasida 46,5 ming nafar o‘quvchi akademik litseylarni tamomlagan. Shundan eng ko‘p bitiruvchi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni 11,4 ming nafar o‘quvchini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam bitiruvchi esa Navoiy va Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni 1,6 ming nafar o‘quvchi.




**Akademik litseylarda o‘qituvchi xodimlarning  
hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi  
(2019/2020 o‘quv yili boshiga)**



	Jami o‘qituvchilar, (o‘rindoshlarsiz) ming kishi	Bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>3,9</b>	<b>11</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,3	9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	0,2	10
Buxoro	0,2	11
Jizzax	0,2	13
Qashqadaryo	0,2	13
Navoiy	0,1	12
Namangan	0,2	11
Samarqand	0,5	11
Surxondaryo	0,1	13
Sirdaryo	0,1	13
Toshkent	0,1	18
Farg‘ona	0,2	13
Xorazm	0,2	11
Toshkent sh.	1,3	10

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha akademik litseylarida bitta o‘qituvchiga (o‘rindoshlarsiz) o‘rtacha 11 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent viloyatiga qayd etilib, unda bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 18 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa eng past ko‘rsatkich, ya‘ni, bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.



**Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi**

**71-230-81-62**